



“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati

PRESS-RELIZ

2024-yil 27-mart

2023-yil yakunlariga bag‘ishlangan matbuot anjumani to‘g‘risida

2024-yil 27-mart kuni “NKMK” AJning matbuot anjumanlarini o‘tkazish zalida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati faoliyatining 2023-yildagi yakunlari bo‘yicha ommaviy axborot vositalari vakillari va jurnalistlar uchun matbuot anjumani o‘tkazildi.

Bugungi kunda Navoiy kon-metallurgiya kombinati – geologiya-qidiruv ishlardan tortib, tayyor birja mahsulotlarini olishgacha bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari to‘liq amalga oshiriladigan sanoat klasteri. Keyingi yillarda kombinat oltin ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi xorijiy kompaniyalar orasida 7-o‘rindan **4-o‘ringa** ko‘tarildi. 2023-yilda oltin ishlab chiqarish hajmi 2016-yildagiga nisbatan **26 foiz**, kumush esa **47 foizga**, shuningdek, ma’dan qazib olish hajmi **2,5 barobar**, ma’danni qayta ishslash hajmi **1,6 barobarga** oshdi.

2023-yilda **67,5 trln so‘mlik** mahsulot ishlab chiqarilib, o‘sish sur’ati 2022-yilga nisbatan **103,8 foizga** teng bo‘ldi. Mahsulot tannarxi **5,6 foizga** kamaytirildi, davlat byudjetiga **38,6 trln so‘m** to‘lovlar amalga oshirildi, **1 445 ta** yangi ish o‘rni yaratildi.

2023-yilda mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida korxona ulushi o‘rtacha **6,3 foizni**, respublika sanoat mahsuloti hajmidagi hissasi **10,3 foizni**, davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi **14,1 foizni** tashkil etdi. Eng yirik soliq to‘lovchilar ro‘yxatida **1-o‘rinda** turadi.

Kombinatda 2023-yilga mo‘ljallangan Investitsiya dasturi doirasida **12 ta** loyiha bo‘yicha **473,5 mln dollarlik** kapital qo‘yilmalar o‘zlashtirildi. Xususan, eng yirik investitsion loyiha doirasida Nurota tumanidagi “**Pistali**” konida yiliga 4 mln tonna oltin ma’danni qayta ishslash quvvatiga ega **6-gidrometallurgiya zavodi** ishga tushirildi. Navoiy mashinasozlik zavodida Mexanik yig‘uv sexining yangi binosi qurilib, zamonaviy, samaradorligi yuqori dastgohlar ishga tushirildi hamda

Quymachilik sexida 25 tonnalik zamonaviy metall eritish pechi foydalanishga topshirildi. 2-gidrometallurgiya zavodida ishlab chiqarishning raqamlashtirilgan yagona boshqaruv markazi ishga tushirildi. “Turbay”, “Balpantov” va “Tomdibuloq” konlarini gidrometallurgiya zavodlari bilan bog’lovchi 82,6 kilometrlik yangi temir yo’l liniyalari qurildi.

2023-yilda kombinatda Mahalliylashtirish dasturi bo'yicha jami **629,5 mlrd so'mlik** mahsulot ishlab chiqarildi. Sanoat kooperatsiyasi doirasida mahalliy korxonalardan **5,5 trln so'mlik** mahsulot xarid qilindi.

Kombinatda transformatsiyaning maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini belgilaydigan “NKMK” AJning 2023-2025-yillarga mo'ljallangan transformatsiya dasturi amalga oshirilmoqda. Ushbu dastur xomashyo bazasini rivojlantirish, asosiy ishlab chiqarish va yordamchi jarayonlarning operatsion samaradorligini oshirish, raqamlashtirishni keng joriy qilish, investitsion jarayonlarni rivojlantirish va loyihibiy qarorlarni maqbullashtirish, tashkiliy tadbirlarni rivojlantirish, ESG (E – ekologiya, S – ijtimoiy soha, G – boshqaruv) va sanoat xavfsizligini ta'minlash kabi yo'nalishlardan iborat.

2023-yilda London oltin quymalari bozori assotsiatsiyasi (LBMA – London Bullion Market Association) tomonidan Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga bozor talablariga to'la rioya qilish borasida navbatdagi test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tganligini tasdiqlovchi sertifikat taqdim etildi.

O'tgan yili korxonada NKMK tashkil topganligining 65 yilligi keng nishonlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tashkil etilganining 65 yilligi munosabati bilan ishlab chiqarish ilg'orlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida”gi Farmoniga muvofiq kombinatning bir guruh ishchi-xodimlariga yuksak davlat mukofotlari topshirildi.

Tadbirda OAV vakillari va jurnalistlarning savollariga atroflicha javoblar berildi.

Murojaat uchun ma'lumotlar:

“NKMK” AJ Matbuot xizmati, Ish telefoni: **+99879 227-74-73**

“NKMK” AJ rasmiy veb-sayti: www.ngmk.uz

“NKMK” AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari:

www.t.me/ngmkofficial

www.fb.com/nkmkofficial

www.instagram.com/nkmk.official

www.youtube.com/nkmkofficial

www.linkedin.com/company/jsc-nmmc/

www.twitter.com/jsc_nmmc